



ALEKSANDR FAYNBERGNING "UMR" SHE'RI TAHLILI VA UNDAGI HAYOTIY OBRAZLAR TASNIFI

Ochilova Xurshida Norsaidovna

O'zbekiston davlat jahon tillari Universiteti

xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili fakulteti 2-bosqich talabasi

Xurshidaochilova317@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lgan sermahsul shoir, yozuvchi va tarjimon Aleksandr Faynbergning "Umr" she'ri tahlil qilinadi. Aleksandr Faynberg ko'p qirrali iste'dod sohibi bo'lib, u nafaqat shoir, balki tarjimon, yozuvchi va tarjimon sifatida ham adabiyot sohasida muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: o'tkinchilik, farishtalar, buyuk bo'lib tug'ilish, tafakkur.

Annotation. This article analyzes the poem "Life" by Alexander Feinberg, a prolific poet, writer and translator well known to Uzbek readers. Alexander Feinberg is a multifaceted talent, occupying an important place in the field of literature not only as a poet, but also as a translator, writer and interpreter.

Keywords: transience, angels, being born great, thought.

Аннотация. В данной статье анализируется стихотворение «Жизнь» Александра Файнберга, поэта, писателя и переводчика, хорошо известного узбекским читателям. Александр Файнберг – многогранный талант, занимающий важное место в литературном мире не только как поэт, но и как переводчик, писатель и интерпретатор.

Ключевые слова: бренность, ангелы, великое рождение, мысль.

Kirish. Shoir, yozuvchi, dramaturg va tarjimon Aleksandr Faynberg o'z she'rlarida doim teran, falsafiy va hayotiy dunyoqarash sohibi ekanligini namoyon



qilgan. Uning har bir she'rida o'zgacha sehr bor, shubhasiz. Shuningdek, adibning "Umr" she'ri ham bundan mustasno emas. Unda shoir insonlar hayotda saroblarga ishonib qolishi, afsuski, ayni shu yolg'onlar bilan hayot ham o'tib ketishini ayanchli tarzda ifodalab bergan.

"Umr" she'riga tasnif. Mazkur lirik asar qisqa bo'lsa-da, ammo chuqur, boy mazmunga ega. U har bir insonni tafakkur qilishga, umrini behuda saroblar bilan o'tkazishdan cheklanishga da'vat qiladi:

Umring bo'yi ishonging kelar
Buyuk bo'lib tug'ilganingga.
Farishtalar ishora qilar
Deya ko'kdan sen kelganingga.

Har bir inson o'zining buyuk bo'lib tug'ilganiga ishonadi, albatta. Kim ham o'zini ahmoq deb hisoblaydi axir?! Ammo muammo shundaki, ba'zi insonlar faqatgina shu fikr bilan cheklanib qolishadi, hayotini mazmunli qilish uchun yoki o'zlari o'ylagandek buyuk, bilimli bo'lish uchun biror harakat qilishmaydi. Bu esa muqarrar mag'lubiyatdir:

Umr o'tdi. Chang – to'zon aro
Bilmay bormi yo eding yo'qdan.
Yerostiga chorlaydi sado,
Lek ishorat bo'lmadi ko'kdan.

Xulosa shuki, inson hech qachon tili bilan "yurmasligi kerak". Balki chindan ham o'zi aytayotgandek yoki ishonadigandek bo'lishni istasa, xuddi shunday hayot sari harakat qilishi kerak. Ayni shundagina u hayotini behudaga sovurib yubormaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://ziyouz.com/images/poets/aleksandr_faynberg



2. <http://kremlin.ru/acts/bank/28431>
3. Faynberg, A. A. (1939–2009). Poetic works and translations. Tashkent; Moscow; Saint Petersburg.
4. Interonconf.org. (2023). Aleksandr Faynbergning she'rlarida hayot falsafasi. Retrieved from <https://interonconf.org/>
5. Ziyouz.com. (n.d.). Aleksandr Faynberg (1939–2009). Retrieved from <https://n.ziyouz.com/>